

Bonu

"Qora tun"

Visit "[Qora tun](#)" on MotoLyrics.com

Gullar bargi shivirlasa,
Sening ovozingmi deyman,
Yoqqan yomg'ir tomchilasa,
Bosgan qadamingmi deyman.

Kunlar yolg'iz yurib bog'da
Shamol bilan so'zlashaman,
Tunlar esa osmondagi
Oy bilan ham sirlashaman.

Qora tun o'xshar ko'zingga,
Yolg'on qaratgan so'zingga,
Qaytgin, jonim, qaytgin menga,
Hech kim o'xshamas o'zingga!

Meni tashlab qayga ketding,
Qaysi manzillarga yetding,
Axir sensiz yasholmayman,
Nega meni sen zor etding?

Endi mening tushimga kel,
Xayol bo'lib, qoshimga kel,
Rahming kelib, hech bo'lmasa,
Ko'zimdagi yoshimga kel!

Qora tun o'xshar ko'zingga,
Yolg'on qaratgan so'zingga,
Qaytgin, jonim, qaytgin menga,
Hech kim o'xshamas o'zingga! (3x)

Visit [Bonu](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.